

Psixologiya fanidan test savollar

1. Birinchi psixologik eksperimental laboratoriya qayerda va kim tomonidan ochilgan?

- A. Z.Freyd-Avstriya
- *B. V.Vund-Germaniya
- S. I.Pavlov- Rossiya
- D. J.Piaje- Shveytsariya

2. “Jon haqida” ilmiy asarining muallifi qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A. Platon
- *B. Aristotel
- S. Demokrit
- D. Gippokrat

3. Odam psixik faoliyatining umumiy qonuniyatlarini o`rganadigan psixologiyaning tarmog`i – bu...

- A. Ijtimoiy psixologiya
- B. Mehnat psixologiyasi
- S. Maxsus psixologiya
- *D. Umumiy psixologiya

4. Sotsiometriya metodini psixologiya faniga kim va qachon kiritgan?

- A. V.Vundt - 19 asrda
- *B. J.Moreno - 20 asrda
- S. Rene Dekart - 17 asrda
- D. Deyl Karnegi 20 asrda

5. Odamning har xil yosh bosqichlarida psixik rivojlanishining xususiyatlarini o`rganadigan psixologiya tarmog`i - bu...

- A. Umumiy psixologiya
- B. Zoopsixologiya
- S. Paropsixologiya
- *D. Yosh davrlari psixologiyasi

6. Qaysi javobda o`qituvchi oldiga qo`yiladigan talablar to`g`ri berilgan?

- A. Keng bilimga ega bo`lishi, turli bilimlardan xabardor bo`lishi, o`z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi
- B. Shaxsni ma`naviy va ma`rifiy tomondan tarbiyalashning mohiyatini bilishi
- S. O`zi dars beradigan fan bo`yicha mustahkam bilimga ega bo`lishi va o`z kasbi, sohasi bo`yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuqlardan xabardor bo`lishi
- *D. Barcha javob to`g`ri

7. Ta`lim-tarbiyaning psixologik qonuniyatlarini o`rganadigan psixologiya tarmog`i qaysi?

- A. Kasb psixologiyasi
- B. Boshqaruv psixologiyasi
- *S. Pedagogik-psixologiya
- D. Bolalar psixologiyasi

8. Psixik hodisalar nechaga bo`linadi va ular qaysilar?

- A. Sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol
- B. Kayfiyat, emotsiya, ruhlanish, ehtiros
- *S. Psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlar
- D. Depressiya, stress, affect, eyforiya

9. Psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A. Aqliy hujum, B.B.B, insert
- B. Eksperiment, klasster, FSMU,
- *S. Kuzatish, tajriba, suhbat, anketa, test
- D. Ma`ruza, tushuntirish, bibliografiya

10. Insonga xos faoliyat turlarini ko`rsating?

- *A. O`yin, o`qish, mehnat

- B. Sport, madaniyat, san'at
- S. Muloqot, ta'lim, mehnat
- D. Fan, jamiyat, din

11. Instinkt nima?

- A. Ongli ravishda odamning o'z ehtiyojlarini qondirishi
- B. Hayot davomida orttirilgan hatti-harakatlar shakli
- *S. Ehtiyojni qondirish uchun qilinadigan murakkab tug'ma hatti-harakatlar
- D. Odamlarning barcha ichki his-tuyg'ulari

12. Psixologiya fani nimani o'rganadi?

- A. Hayvonlar psixikasini
- B. Bizning sezgilarimiz, fikrlarimiz, his-tuyg'ularimizni o'rganadi
- *S. Ruhiy hodisalarni, ularning fakt va mexanizmlarini hamda miya mahsuli bo'lgan psixikaning zohir bo'lishi va uning taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganadi
- D. Miya jarayonlari va uning qonuniyatlarini o'rganadi

13. Psixik jarayonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang?

- A. Tirik mavjudotning tashqi muhitga javobi
- B. Ixtiyorsiz, ixtiyoriy, ixtiyoriydan so'nggi
- *S. Sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq.
- D. Inson va hayvonning ichki kechinmalari

14. O'zidagi qobiliyatni tasavvurlariga tayanib ko'rsata olish xususiyati bu...

- A. Akademik qobiliyat
- B. Didaktik qobiliyat
- S. Perseptiv qobiliyat
- *D. Eydetik qobiliyat

15. Psixologiya fani qaysi fan tarkibidan ajralib chiqqan

- *A. Falsafa.
- B. Fiziologiya
- S. Sotsiologiya
- D. Tarix

16. Ko'nikma – bu nima?

- *A. Ayrim harakatlarni bajarishni bilish, ularni bajarish tizimini tushunish
- B. Ongli faoliyatni boshqarish usullari
- S. Ongsiz harakatlarni bajarish
- D. Tug'ma hatti-harakatlar shakli

17. Ong deganda nima tushuniladi?

- A. Bilish jarayonlar majmuasi, uning oliy ko'rinishi
- *B. Yuksak taraqqiy etgan materiyaning xususiyati, miyaning mahsuli
- S. Psixikaning oliy hamda uni yaxlit bir holatga keltiruvchi shakli
- D. Anglangan hayot, odamlarning turmush tarzi

18. Psixologiya fanining prinsiplarini aniqlang?

- A. Suhbat, tajriba, determinizm
- B. Ong va faoliyat birligi, kuzatish
- *S. Determinizm, ong va faoliyat birligi, psixikaning faoliyatda rivojlanishi
- D. Sotsiometriya, anketa, longityud

19. Shaxsga berilgan to'g'ri ta'rifni toping?

- A. Individdni tushunamiz
- B. Ma'lum jamiyat a'zosi bo'lgan kishilar
- *S. Ijtimoiy hayotda faol qatnashadigan, maqsad qo'yib intiladigan, odamlar bilan ijtimoiy munosabatga kirisha oladigan insonni tushunamiz
- D. Har bir ongli odamni tushunamiz

20. Muayyan tasavvurlarni bir-biriga qo'shib yoki ulardan foydalanib narsa va hodisalarning yangi obrazlarini yaratishdan iborat xayol fenomeni

- *A. Agglutinatsiya (yopishtirmoq, yelimplamoq)

B. Giperbolizatsiya (bo'rttirish, kuchaytirish)

S. Sxematizatsiya (obraz, shakl)

D. Tipizatsiya (iz chiziq)

21. Psixika –bu nima?

*A. Ob'yektiv olamning sub'yektiv obrazi, voqelikning miyadagi aksi

B. Oliy nerv faoliyatining mahsuli, voqelikning namoyon bo'lishi

S. Nerv sistemasiga ega bo'lgan har bir organizmga xos hodisa

D. Materiyaga doir ma'lumotlar majmuasi

22. Markaziy nerv sistemasi quydagilardan tarkib topgan

A. O'rta miya va uzunchoq miyadan

B. Miyacha va varoliy ko'prigidan

S. Periferik va vegetativ nerv sistemasi

*D. Bosh miya va orqa miyadan

23. Refleks atamasi qanday tushuniladi?

A. Ongning o'zida paydo bo'lib, o'zida aks etadigan psixik jarayon

B. Tashqi olamning miyada hosil bo'ladigan obrazi

*S. Organizmning ichki va tashqi muhit ta'siriga nerv tizimi orqali beradigan javob harakatlari reaksiyasi

D. Organizmning tashqi ta'sirlarga moslashishi

24. Oz' fanidagi murakkab bilimlarni o'quvchiga tushunarli qilib yetkazib bera olish xususiyati bu...?

A. Akademik qobiliyat

*B. Didaktik qobiliyat

S. Perseptiv qobiliyat

D. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati

25. Diqqatga berilgan to'g'ri ta'rifni toping?

A. Oldindan mo'ljallangan bo'lib, maqsadga qaratilgan faollik

B. Narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatlarining ongimizda aks etishi

*S. Ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan ob'ekga aktiv qaratish

D. Ilgari idrok qilingan narsalarning ko'z oldida kelgan obrazi

26. Diqqatning turlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

*A. Ixtiyorsiz, ixtiyoriy, ixtiyoriydan keyingi

B. Passiv, aktiv

S. Harakat, obrazli, emotsional

D. Ichki tashqi

27. O'qituvchining o'quvchini tushunishi uning ichki dunyosiga kira olish xususiyati bu...?

A. Akademik qobiliyat

B. Didaktik qobiliyat

*S. Perseptiv qobiliyat

D. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati

28. Ixtiyoriydan keyingi diqqat qanday diqqat?

A. Passiv diqqatdir

*B. Avtomatlashgan diqqatdir

S. Aktiv diqqat

D. Tashqi diqqat

29. Atrofimizdagi narsa va hodisalarning retseptorlarga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishi ... deyiladi?

A. Idrok

B. Xotira

*S. Sezgi

D. Xayol

30. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslarini analizatorlar faoliyati bilan bog'lab tushuntirgan olimning nomini aniqlang?

A. P.K.Anoxin

*B. I.P.Pavlov
S. S.V.Krakov
D.Secheniv

31. Analizatorlarning tarkibiy qismlari to`g`ri berilgan qatorni aniqlang?

- A. Retseptor
- B. Afferent va efferent nerv tolalari
- S. Bosh miyaning qo'zg'alishni qabul qiluvchi qismi
- *D. Barcha javoblar to'g'ri

32. Retseptor bu-...

- A. Markazdan tegishli javob reaksiyasini olib qaytuvchi nerv tolasi
- B. Ta'sirotni retseptordan olib markazga eltuvchi nerv tolasi
- *S. Narsa va hodisalarning organizmga bo`lgan ta'sirotlarini bevosita qabul qilib oluvchi periferik nerv uchidir
- D. Bosh miyaning qo'zg'alishni qabul qiluvchi qismi

33. Sezgi turlari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- *A. Ekstroretseptor, introretseptor, proprioretseptor
- B. Meda, jigar, ichak, o'pka
- S. Muskul, pay, boylam
- D. Nafas olish, yurak urish, qon aylanish,

34. Qo`zg`atuvchilar ta'siriga sezgi a`zolarining moslashishi ...deyiladi

- A. Sinisteziya
- B. Illuziya
- *S. Adaptatsiya
- D. Appersepsiya

35. Idrokka berilgan ta`rif qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A. Sezgi a`zolarimizga ta`sir etadigan narsalarning ayrim xossalarni miyamizda bevosita aks etishidir
- B. Biz ilgari ko`rmagan hayotiy tajribalarimizda uchratmagan narsa va hodisalarni mavjud tasavvurlar asosida miyamizda yatatishdir
- *S. Sezgi a`zolarimizga ta`sir etayotgan narsalarning ongda yaxlit holicha aks ettirish jarayonidir
- D. Ongimizdan tashqarida mavjud bo`lgan moddiy olamni sezgilar orqali bilishdir

36. Quyidagi qatorning qaysi birida idrokning murakkab turlari berilgan?

- A. Ixtiyoriy, ixtiyorsiz
- B. Sodda, murakkab
- S. So`z-mantiq, emotsional
- *D. Fazoni, harakatni, vaqtni idrok qilish

37. Illyuziyaga berilgan ta`rif qaysi javobda to`g`ri ifodalangan?

- *A. Bizga ta`sir qilayotgan narsalarni yanglish idrok qilishdir
- B. Predmetni yaxlit holicha idrok qilishdir
- S. Narsalarni kichraytirib idrok qilishdir
- D. Yo`q narsalarning ko`zga ko`rinishi, yo`q hidning dimoqqa urilishi

38. Xotiraga berilgan to`g`ri ta`rifni ko`rsating?

- A. Ilgari idrok qilingan narsalarning esimizga tushishi
- *B. Ongimiz aks ettirilgan narsalarni mustahkamlash, saqlab qolish va keyinchilik esa tiklashdan iborat bo`lgan aqliy faoliyat
- S. Materialni ma`nosiga tushunib esda olib qolish
- D. Atrofdagi narsa va hodisalarning miyamizda yaxlitligicha aks etishi

39. Xotira faoliyatining qisman buzilishi yoki to`liq yo`qolishi qaysi javobda to`g`ri ifodalangan?

- A. Astinopiya
- B. Fobiya
- *S. Amneziya

D. Assotsiatsiya

40. Xotira turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Harakat, obrazli, emotsional, so'z-mantiq

B. Emotsiya, illuziya, agglyutunatsiya

S. Faol va passiv

*D. Ixtiyoriy, ixtiyorsiz, qisqa va uzoq muddatli xotira

41. O'qituvchining o'z fani bilan birgalikda boshqa fanlardan ham kerakli bilimga ega bo'lish xususiyati bu...?

*A. Akademik qobiliyat

B. Didaktik qobiliyat

S. Perseptiv qobiliyat

D. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati

42. Tafakkur shakllari keltirilgan to'g'ri qatorni aniqlang?

A. Hukm, tushuncha, diqqat

*B. Hukm, tushuncha, xulosa

S. Hukm, iroda, analiz

D. Analiz, sintez, xulosa chiqarish

43. Tafakkur operatsiyalari to'g'ri keltirilgan qatorni aniqlang?

A. Analiz, sintez, taqqoslash

B. Abstraksiyalash, umumiyashtirish, aniqlashtirish

S. Klassifikatsiya, sistemalashtirish

*D. Barcha javoblar to'g'ri

44. Ob'yektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshashligi va farqini aniqlovchi tafakkur operatsiyasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Umumlashtirish

B. Sistemalashtirish.

*S. Taqqoslash

D. Klassifikatsiyalash.

45. Vegetativ nerv cictemasi ikki bo'lakdan iborat, bular...

A. Sezuvchi va harakatlantiruvchi nervlar

B. Qo'zg'alish va tormozlanish

*S. Simpatik va parasimpatik nervlar

D. Retseptorlar

46. Nutq turlari to'g'ri keltirilgan qatorni aniqlang?

A. Dialog, monolog, yozma

B. Og'zaki, ichki, tashqi

S. Faol passiv

*D. Barcha javoblar to'g'ri

47. Ikki yoki undan ortiq kishilarning suhbatini nutqning qaysi turiga misol bo'lishini aniqlang?

A. Monolog

*B. Dialog

S. Ichki

D. Tashqi

48. Predmet, narsalarning umumiy belgilarini biriktirgan so'z nima deyiladi?

A. Xulosa

*B. Tushuncha

S. Hukm

D. Abstraksiya

49. Xulosa chiqarishning turlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A. Analiz, sintez, taqqoslash

*B. Induktiv, deduktiv, analogiya

S. Analogiya, analiz, sistemalash

D. Deduktiv, aniqlashtirish, analiz

50. Biror maqsadsiz, irodani ishga solmasdan, o`z-o`ziga obraz va tasavvurlar yaratuvchi xayol turi qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

A. Ixtiyoriy

*B. Ixtiyorsiz

S. Ijodiy

D. Tasavvur

51. Temperament haqidagi birinchi qarashlar qaysi olim tomonidan ilgari surilgan?

*A. Gippokrat

B. Aristotel

S. Aflotun

D. V. Vund

52. Psixologiya fanining predmeti nima?

*A. Ob`yektiv olamning ongimizdagi sub`yektiv obrazi bo`lgan psixikani, psixik faktlarni, uning qonuniyatlarini va mexanizmlarini o`rganadi

B. Tashqi olam voqea-hodisalarining ongimizda aks etishini o`rganadi

S. Psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixologik xususiyatlarni o`rganadi

D. Organizmning tashqi ta`sirlarga javob reaksiyasini o`rganadi

53. Individual tipologik xususiyatlar deganda nimani tushunasiz?

A. Qobiliyat

B. Temperament

S. Xarakter

*D. Barcha javoblar to`g`ri

54. Qiziqish bu - ...

A. Anglangan motiv

B. Kishining ma`lum narsalarga bo`lgan intilishi

S. Motivning hissiy namoyon bo`lishi

*D. Barcha javoblar to`g`ri

55. Oliy nerv tizimining turlarini ko`rsating?

*A. Markaziy, vegetativ, periferik

B. Markaziy, bosh miya yarim sharlari, vegetativ

S. Miyacha, bosh miya po`stlog`i, periferik

D. Orqa miya, uzunchoq miya, varoliy ko`prigi

56. Jamoani o`rganish metodi qaysi metod?

A. Suhbat

*B. Sotsiometriya

S. Test

D. Anketa

57. Bixeviorizm ilmiy yo`nalishi – bu...ni o`rgangan.

A. Ongsizlik

B. Bilim

S. Ong

*D. Xulq-atvor

58. Gestalt psixologiya ilmiy yo`nalishi nima bilan bog`liq?

A. Ongsizlik

*B. Obraz

S. Xulq-atvor

D. Irsiyat

59. Psixika qachon paydo bo`lgan?

A. O`simliklar paydo bo`lganda

*B. Seskanuvchanlik paydo bo`lganda

S. Hayvonlar paydo bo`lgandan keyin

D. Nerv sistemasi paydo bo'lgandan keyin

60. Freydizm ilmiy yo'nalishi – bu...ni o'rgangan.

A. Xulq-atvor

*B. O'ngsizlik

S. Obraz

D. Motiv

61. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar bu...

A. Irsiyat

B. Ijtimoiy muhit

S. Talim tarbiya

*D. Barcha javoblar to'g'ri

62. Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Psixologik ma'rifat va tashviqot ishlari.

B. Psixologik profilaktika, diagnostika va korreksiya.

C. Psixologik maslahat va kasb-hunarga yo'naltirish.

*D. Barcha javoblar to'g'ri

63. O'spirinlikning asosiy faoliyati: ...

A. O'qish

B. Mehnat

S. Kasb tanlash

*D. O'qish va kasb tanlah

64. Tropizm - bu nima?

A. Tug'ma hatti-harakatlar

*B. O'simliklarning tashqi ta'sirga javobi

S. Hayvonlarning orttirilgan harakatlari

D. Instinktlar

65. Insonning tashqi olamga bo'lgan munosabatini nima ifodalaydi?

A. Psixik jarayonlar

*B. Psixik holatlar

S. Psixologik xususiyatlar

D. Bilish jarayonlari

66. Sezgi organlariga ta'sir etib sezgini vujudga keltiradigan har bir narsa yoki hodisa nima deb ataladi?

A. Analizator

B. Qo'zg'alish

*S. Qo'zg'ovchi

D. Refleks

67. Ekstoretseptor sezgilar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

*A. Ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgilari

B. Muskul, pay, boylam sezgilati

S. Meda, jigar, ichak, o'pka

D. Nafas olish, qon aylanish, yurak urishi,

68. Odam ko'zining to'r pardasida qancha tayoqchasimon va kalbachasimon nervlar mavjud?

A. 150 million kolbacha, 140 million tayoqcha

B. 200 mil kolbacha, 70 mil tayoqcha

S. 15 mil tayoqcha, 100 mil kolbacha

*D. 130 mil tayoqcha, 7 mil kalbacha

69. Gallutsinatsiya nima?

*A. Yo'q narsalarni tashqi ta'surotlarsiz idrok qilinishi

B. Narsalarni noto'g'ri idrok qilish

S. Fazoni idrok qilish

D. Harakatni idrok qilish

70. Nerv hujayrasi nimalardan tuzilgan?

A. Dendrid

B. Neyrit

*S. Neyron

D. Akson

71. O'quvchilarga ta'lim berishda nechta xotira qonunlaridan foydalanish maqsadga muvofiq?

*A. 4 ta

B. 6 ta

S. 8 ta

D. 2 ta

72. Psixoanaliz ta'limoti asoschisi

A. Vundt

*B. Freyd

S. IOnq

D. Dekart

73. Xotira faoliyati nimadan boshlanadi?

A. Unutish jarayonidan

*B. Esga olib qolishdan

S. Esga tushirishdan

D. Tanish jarayonidan

74. Aslida mavjud bo'lsa ham, lekin bizning tajribamizda hali uchramagan va biz idrok qilmagan narsa va hodisalar to'g'risida tasavvur va obrazlar yaratishdan iborat bo'lgan hayol turi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

*A. Tasavvur xayoli

B. Ijodiy xayol

S. Ixtiyoriy xayol

D. Ixtiyorsiz xayol

75. Faoliyat deb :

A. Ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ongli harakat

*B. Anglangan maqsad bilan boshqariladigan ichki va tashqi faollik

S. Maqsadni amalga oshirish yo'lidagi harakatlar

D. Shaxslararo munosabatlarga kirisha olish

76. Guruh turlari:

*A. Shartli, real, refferent

B. Kichik, katta, real, jamoa

S. Kichik, katta, real, shartli

D. Rasmiy, norasmiy, diffuz

77. Inson aqliy faoliyatining yuksak formasi bu :

A. Idrok

B. Xayol

S. Diqqat

*D. Tafakkur

78. Kishining hayotiy faoliyatini oshiradigan, g'ayratini orttiradigan hissiyotlar bu..

A. Astenik hissiyot

*B. Stenik hissiyot

S. Frustatsiya

D. Ehtiros

79. Kishining nimagadir e'tibor berishi, qandaydir predmet va xodisalarni bilishga intilishi nima deyilishini aniqlang?

A. Qobiliyat

B. Temperament

*S. Qiziqish

D. Sezgi

80. Kishining hayotiy faoliyatini pasaytiradigan, g'ayratini susaytiradigan hissiyotlar bu...

*A. Astenik hissiyot

- B. Ehtiros
- S. Emotsiya
- D. Stenik hissiyot

81. Xayol turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Aktiv (faol) va passiv (sust)
- B. Ixtiyoriy, ixtiyorsiz va ijodiy xayol
- S. Shirin xayol va tasavvur xayoli
- *D. Barcha javoblar to'g'ri

82. Asosiy faoliyati o'qish bo'lgan davr

- *A. Kichik maktab yosh davri
- B. O'smirlik
- S. O'spirinlik
- D. Etuklik davri

83. Mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan ko'rinishi bu...

- A. Konikma
- B. Odat
- S. Mahorat
- *D. Malaka

84. Shartli guruh bu:

- A. Aniq makon va zamonda mavjud bo'lgan real munosabatlarga kirishish yo'li bilan hosil bo'lgan guruh
- *B. Ma'lum belgilariga (millati, yoshi, jinsi, e'tiqodi) qarab birlashgan kishilar guruhi
- S. Qisqa vaqt davomida ma'lum joyda birlashgan insonlar guruhi
- D. Tadqiqotchi tomonidan ma'lum shartga asosan hosil qilingan guruh

85. Real guruh bu:

- *A. Aniq makon va zamonda mavjud bo'lgan real munosabatlarga kirishish yo'li bilan hosil bo'lgan huruh
- B. Tadqiqotchi tomonidan ma'lum shartga asosan hosil qilingan guruh
- S. Qisqa vaqt davomida ma'lum joyda birlashgan insonlar guruh
- D. Ma'lum belgilariga (millati, yoshi, jinsi, e'tiqodi) qarab birlashgan kishilar guruhi

86. Kishida intilishlarning susayishi harakatlarning tormozlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan tushkunlik holati bu...

- *A. Depressiya
- B. Apatiya
- S. Stress
- D. Emotsiya

87. Muomala tomonlari ko'rsatilgan javobni toping

- A. Kommunikativ, interaktiv, steriotiplashtirish
- B. Kommunikativ, interaktiv, refleksiya
- S. Kommunikativ, interaktiv, indintefikasiya
- *D. Kommunikativ, interaktiv, persiptiv

88. Kommunikativ muomalaning vositasi:

- A. Nutq orqali
- B. Imo-ishora orqali
- S. Paralingvistik hatti-harakat orqali
- *D. Barcha javoblar to'g'ri

89 Kishida kuchli qo'zg'ovchi ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy zo'riqish holati bu...

- A. Affekt
- *B. Stress
- S. Hissiyot
- D. Ehtiros

90. Muloqotning kommunikativ tomoni qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- *A. Verbal, noverbal, paralingvistik
- B. Mimika, pontomimika, imo ishora
- S. Ijtimoiy rol, ijtimoiy norma, avtoritet, ijtimoiy sanksiya

D. Indentifikatsiya, stereotipizatsiya, refleksiya

91. Maqsadi jamiyat maqsadi bilan uyg'unlashib ketadigan, bir maqsad yo'lida birlashadigan insonlar guruhi bu...

*A. Jamoa

B. Olamon

S. Uyushma

D. Tuzilma

92. Sotsiometriya metodi

A. Guruh a'zolarining tabaqalanishini o'rganadi

B. Jamoadagi psixologik muhitni o'rganadi

C. Guruh etakchilarini aniqlaydi

*D. Barcha javoblar to'g'ri

93. Anketa metodi turlari

A. To'g'ridan to'g'ri

*B. Ochiq va yopiq

S. Bevosita

D. Bavosita

94. Manbai bizning ongimizdan tashqarida bo'lgan diqqat turini aniqlang.

A. ixtiyoriy diqqat.

B. ixtiyopsiz diqqat.

S. ichki diqqat.

*D. tashqi diqqat.

95. Qobiliyat kurtaklari rivojlanayotgan bolalar maktabda qanday sinflarda o'qiydilar?

*A. Oddiy maktabda

B. Chuqurlashtirilgan maktabda

S. Maxsus maktabda

D. Xususiy maktabda

96. Boshqalarning emotsional holatlariga hamdardlik qilish jarayoni va boshqalarning qayg'u hasratlarini tushuna bilish faoliyati bu...

*A. Empatiya

B. Simpatiya

S. Antipatiya

D. Fobiya

97. Tafakkur sifatlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Mazmundorligi, chuqurligi

B. kengligi, mustaqilligi, tezligi

S. Samaradorligi, ixchamligi, tanqidiligi

*D. Barcha javoblar to'g'ri

98. Tafakkur turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan

A. Aniq, abstrakt va tushunish

B. Nazariy, amaliy va ijodiy

S. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz

*D. Barcha javoblar to'g'ri

99. Ayrim muammolarni hal qilish zarurligini shu zahotiyoyoq anglab yetish holati bu...

A. Analogiya

B. Hukm

*S. Insayt

D. Gipoteza

100. Yuksak hislar tarkibiga qanday hislar kiradi?

A. Praksik hislar

B. Axloqiy va estetik hislar

S. Intellektual hislar

*D. Barcha javoblar to'g'ri